JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 8 - fevral 38-3-47-Q/24 Do‘stlik tuman hokimligi

Tuman hududidan o‘tuvchi M39 “Toshkent-Termiz” avtomobil yo‘liga zaruriy yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3127-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 377-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-fevralda “Xavfsiz va ravon yo‘l” tamoyili asosida avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, Jizzax viloyat IIB JXX YHX boshqarmasining 2023-yil 27-oktyabrdagi 10/6-1864-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi Qonunga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Jizzax viloyat IIB JXX YHX boshqarmasining 2023-yil 27-oktyabrdagi 10/6-1864-sonli xatini ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Do‘stlik tumani hududidan o‘tuvchi M39 “Toshkent-Termiz” avtomobil yo‘liga **ilova**ga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” Davlat muassasasi (Z.Kulbekov) va tuman IIB YXHB boshlig’i (Z.Anarboev) bilan birgalikda;

Yo‘l belgilarini o‘z manziliga belgilangan tartibda o‘rnatish va harakat havfsizligi ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Tinchlikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2024-yil 8-fevraldagi
38-3-47-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidan o’tuvchi M39 “Toshkent-Termiz” avtomobil yo’liga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari

RO‘YXATI

T/R	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1.	M39 “Toshkent-Termiz” avtomobil yo‘li	PK 940 o’ng tomon	1 1	**3.27** “To’xtab turish taqiqlangan” **7.4.1** “Transport vositalati turi”
2.	M39 “Toshkent-Termiz” avtomobil yo‘li	PK 944 chap tomon	1 1	**3.27** “To’xtab turish taqiqlangan” **7.4.1** “Transport vositalati turi”
JAMI:			4	